

**Termiz davlat universitetida “Eng yaxshi kitobxon talaba” ko‘rik tanlovining
Surxondaryo viloyati oliy ta‘lim muassasalararo bosqichi g‘oliblarini aniqlash
maqsadida o‘tkazilgan yig‘ilish**

B A Y O N N O M A S I

2022-yil 19-oktabr

Termiz shahri

Raislik qiluvchi: - O.Shofiyev TerDU Yoshlar masalalari va ma‘naviy-
ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor
Qatnashdi: Viloyat OTMLar, Yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va
ma‘rifat bo‘limi boshliqlari,
I.Tolipov, Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti
yetakchisi
N.Nabiyeva DTPI o‘qituvchi, Sh.Qo‘ziyev TAIRI bo‘limi
boshlig‘i,

KUN TARTIBI:

**1. Surxondaryo viloyati oliy ta‘lim muassasalararo bosqichi talaba-
yoshlari o‘rtasida o‘tkazilgan “Eng yaxshi kitobxon talaba” ko‘rik tanlovi
g‘oliblarini aniqlash haqida.**

Surxondaryo viloyati oliy ta‘lim muassasalararo bosqichi talaba-yoshlar o‘rtasida **“Eng yaxshi kitobxon talaba”** ko‘rik tanlovi o‘tkazildi.

Ushbu tanlovni o‘tkazishdan maqsad - talabalar o‘rtasida badiiy asarlarning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini targ‘ib qilish orqali yoshlarimizni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, ularning kitobdan foydalanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, mustaqil va erkin fikrga ega iste‘dodli yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Tanlovlarning vazifalari - mamlakatimizda kitobxonlikni keng targ‘ib etish, badiiy asarlarni yaratish va qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarni hamda jamiyatimizda yuksak ma‘naviyatni shakllantirish va mustahkamlashda badiiy asarlar roli va ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish, ijodkorlar tomonidan yangi yaratilgan badiiy asarlar bilan talaba-yoshlarni yaqindan tanishtirib borish, ularda kitobni mutolaa qilish, tahlil qilib, o‘zlarining mustaqil fikr bildirishga oid ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlik harakati targ‘iboti ta‘sirchanligini yanada oshirish, kitobning yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma‘naviyatli, intellektual salohiyatli, ota-onasiga, vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdagi ahamiyati to‘g‘risida talabalarning tasavvurlarini yanada boyitish, iste‘dodli va iqtidorli talabalarni rag‘batlantirish, kitob targ‘iboti orqali yoshlarning ma‘naviy-ma‘rifiy hamda ijodiy ishlardagi faolligini yanada oshirishdan iborat.

Surxondaryo viloyati oliy ta'lim muassasalararo bosqichida Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi Abdullayeva Parvina Maxmarahimovna, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi 4-bosqich talabasi Bo'ronova Ra'no Abdujabborovna, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Pediatriya ishi yo'nalishi 3-bosqich talabasi Nuraliyeva Madina Ergash qizi, Termiz davlat universiteti pedagogika inistituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlangich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi Uralova Mexriniso Jumanazar qizi va Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti O'simliklar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari karantini 2-bosqich talabasi Jayllova Shaxnoza Farxod qizlari o'rtasida "Eng yaxshi kitobxon talaba" ko'rik tanlovini o'tkazildi.

Tanlovga Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi qatnashmadi.

"Eng yaxshi kitobxon talaba" ko'rik tanlovini o'tkazishda mutaxassislardan iborat Hakamlar hay'ati tuzildi.

Tanlov nizom asosida quyidagi bosqichlarda o'tkazildi:

"Eng bilimdon kitobxon" sharti (test shaklida). Bunda, tanlov ishtirokchilari o'rtasida test (50 ta savoldan iborat) o'tkazildi.

"Annotatsiya mahorati" sharti. Bunda, ishtirokchilar tomonidan "Men yoqtirgan asar" nomi ostida o'zi sevib o'qigan asar bo'yicha qisqacha ma'lumotlar - annotatsiyalar berildi.

"Kitobxonlik va mutolaa madaniyatini keng targ'ib etish" sharti. Bunda, ishtirokchilar tomonidan kitobxonlik va mutolaa madaniyatini targ'ib etish jarayoni amalga oshirildi.

Tanlovda ishtirokchilari Ishchi guruh tomonidan belgilangan nizom asosida quyidagicha baholandi:

Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi Abdullayeva Parvina Maxmarahimovna 73 ball;

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich talabasi Bo'ronova Ra'no Abdujabborovna 75 ball;

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Pediatriya ishi yo'nalishi 3-bosqich talabasi Nuraliyeva Madina Ergash qizi 53 ball;

Termiz davlat universiteti pedagogika inistituti Boshlangich ta'lim fakulteti Boshlangich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi Uralova Mexriniso Jumanazar qizi 44 ball;

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti O'simliklar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari karantini 2-bosqich talabasi Jayllova Shaxnoza Farxod qizi 52 ball.

G'oliblarni aniqlashda Ishchi guruh a'zolari xolislik, adolatlilik, ochiqlik tamoyillariga tayandilar.

Surxondaryo viloyati oliy ta'lim muassasalararo bosqichi talaba-yoshlar o'rtasida o'tkazilgan "Eng yaxshi kitobxon talaba" ko'rik tanlovida quyida nomlari keltirilgan talabalar ishchi guruh tomonidan tanlov g'oliblari deb topildi:

I-o'rin Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich talabasi Bo'ronova Ra'no Abdujabborovna;

II-o'rin Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi Abdullayeva Parvina Maxmarahimovna;

III-o'rin Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Pediatriya ishi yo'nalishi 3-bosqich talabasi Nuraliyeva Madina Ergash qizi.

Kun tartibidagi masala bo'yicha barcha fikrlar inobatga olinib, Ishchi guruh

QAROR QILADI:

1. Surxondaryo viloyati oliy ta'lim muassasalararo bosqichi talaba-yoshlar o'rtasida o'tkazilgan "Eng yaxshi kitobxon talaba" ko'rik tanlovi g'oliblari etib quyidagilar belgilansin:

I-o'rin Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi 4-bosqich talabasi Bo'ronova Ra'no Abdujabborovna;

II-o'rin Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi Abdullayeva Parvina Maxmarahimovna;

III-o'rin Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Pediatriya ishi yo'nalishi 3-bosqich talabasi Nuraliyeva Madina Ergash qizi.

2. Tanlovda g'olib bo'lgan talabalar diplom va sovg'alari bilan taqdirlansin.

3. Tanlovda g'olib bo'lgan talabaning hujjatlari tanlovning hududiy saralash bosqichiga taqdim etishi ta'minlansin.

4. G'olib bo'lgan talabalar haqida ma'lumotlar OAV va OTMlarning ijtimoiy tarmoqlarida yoritilsin.

Ishchi guruh raisi:

**Ishchi guruh raisi
o'rinbosari:**

A'zolari:



O.Shofiyev

B.Toshqobilov

N.Yo'ldoshev

S.To'liboyev

A.Gulobov

I.Tolipov